



V DOKUCHAYEV VA UNING KICHIK HUDUDLAR GEOGRAFIYASI  
FANINI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

**Raimova Muhlisa Qobiljon qizi**

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy Fanlar Fakulteti. Geografiya  
ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi*

**Anotatsiya.** Umumiy qilib aytadigan bo'lsak Vasiliy Vasilyevich Dokuchayev (1846–1903) tabiiy geografiya va tuproqshunoslik fanining asoschilaridan biri bo'lib, u geografiya fanida kichik hududlar (landshaftlar) o'rganishiga katta hissa qo'shgan. U tuproqni bir butun tabiiy geosistema sifatida o'rganib, uning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqladi. Bu ilmiy yondashuv zamonaviy geografiya, ekologiya va landshaftshunoslik rivojlanishining asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Ushbu maqolada Vasiliy Vasilyevich Dokuchayev va uning kichik hududlar geografiyasi fanini rivojlanishidagi o'rni haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

**Annotation.** In general, Vasily Vasilyevich Dokuchayev (1846–1903) was one of the founders of the science of natural geography and soil science, and he made a great contribution to the study of small areas (landscapes) in the science of geography. He studied the soil as a whole natural geosystem and determined the factors affecting its formation. This scientific approach determined the main principles of the development of modern geography, ecology and landscape science. This article provides detailed information about Vasily Vasilyevich Dokuchayev and his role in the development of the science of geography of small areas.

**Аннотация.** Вообще Василий Васильевич Докучаев (1846–1903) был одним из основоположников науки естественной географии и почвоведения и внес большой вклад в изучение малых территорий (ландшафтов) в географическую науку. Он изучил почву как целостную природную геосистему и определил факторы, влияющие на ее формирование. Этот научный подход определил основные принципы развития современной географии, экологии и ландшафтоведения. В данной статье представлена подробная информация о Василии Васильевиче Докучаеве и его роли в развитии науки географии малых территорий.

**Kalit so'zlar.** Vasiliy Vasilyevich Dokuchayev, landshaftshunoslik, geografiya, kichik hududlar, tuproq.

**Key words.** Vasily Vasilyevich Dokuchayev, landscape science, geography, small areas, soil.

**Ключевые слова.** Василий Васильевич Докучаев, ландшафтоведение, география, малые территории, почвы.

**Kirish.** Tuproqshunoslikning fan sifatida shakllanishi. Dokuchayev tuproqni tirik va noorganik komponentlarning o'zaro ta'siri natijasi deb qaradi. U tuproq hosil bo'lish



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



jarayoniga tabiiy omillarning (iqlim, relyef, biologik omillar, ona jins va vaqt) ta'sirini o'rgandi va bu hodisani "tuproq hosil bo'lish qonuniyati" deb atadi. Landshaftshunoslik asoslari. Dokuchayev landshaftlarni bir-biriga bog'liq tabiat komponentlarining majmuasi sifatida o'rgandi. Bu yondashuv hududiy birliklarning tabiiy chegaralarini aniqlashda muhim bo'ldi va kichik hududlar geografiyasi rivojiga zamin yaratdi. Kichik hududlar o'rganilishi. Dokuchayev birinchi bo'lib kichik geografik hududlarni o'rganishda kompleks yondashuvni taklif etdi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir hududning o'ziga xos tabiiy, ekologik va ijtimoiy xususiyatlari o'rganilishi lozim. Tuproq xaritalash va hududiy farqlanish U tuproq xaritalarini yaratish orqali hududlar tabiati va ularning yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishni yo'lga qo'ydi.

**Asosiy qism.** Dokuchayevning izdoshlari – N. M. Sibirtsev, G. F. Morozov va boshqalar – uning yondashuvlarini rivojlantirib, tabiiy hududlar va landshaftlar nazariyasini yanada boyitdi. Ularning ishlari zamonaviy ekologiya, tuproqshunoslik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asos bo'lib xizmat qildi.

Dokuchayevning ishlari bugungi kunda ekologik muammolarni hal qilish, qishloq xo'jaligi va tuproq unumdorligini oshirishda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Uning "tabiat va jamiyatning o'zaro bog'liqligi" g'oyasi ekologik geografiyada muhim o'rin tutadi. Dokuchayev tuproqni birinchi marta mustaqil tabiiy jism sifatida ko'rib chiqdi. Uning fikricha, tuproq bir vaqtning o'zida geologik jinslarning va biogeokimyoviy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. U tuproq hosil bo'lish jarayonini quyidagi asosiy omillar bilan bog'lagan:

- **Iqlim:** Havo harorati, yog'ingarchilik miqdori, shamol ta'siri.
- **Ona jins:** Tuproqning mineral tarkibi va mexanik xususiyatlari.
- **Relyef:** Yuzaning shakli va balandligi tuproq eroziyasiga ta'sir qiladi.
- **Biologik omillar:** O'simliklar va hayvonlar tuproq tarkibi va tuzilishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.
- **Vaqt:** Tuproq hosil bo'lish jarayoni uzoq davom etadigan evolyutsion jarayon.

Dokuchayev bu omillarning o'zaro ta'siri natijasida tuproqning hududiy farqlanishini o'rgandi va "**tuproq zonalligi**" tamoyilini yaratdi. Bu tamoyil geografik hududlarda tuproq turli zonalar bo'yicha joylashganligini ilmiy asoslashga yordam berdi.

Landshaftshunoslikning rivoji Dokuchayevning yondashuvi landshaftshunoslik faniga ham zamin yaratibgina qolmay har bir hudud o'ziga xos tabiat kompleksi sifatida qaraldi, ya'ni tuproq, iqlim, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va inson faoliyatining bir butunligi hisobga olindi. U hududlarni o'rganishda kompleks (integrativ) tahlil usulini qo'llagan. Bu yondashuv keyinchalik tabiiy geografianing turli tarmoqlarini, jumladan, kichik hududlar geografiyasini rivojlantirishda asos bo'ldi. Dokuchayev landshaftlarni tizimli o'rganish tamoyilini ishlab chiqdi, bu esa hududiy birliklarning chegaralarini aniq belgilashda va tabiatni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ilmiy kashfiyotlarning amaliy ahamiyati. Dokuchayevning tadqiqotlari faqat nazariy bo'lmay, balki amaliy ahamiyatga ham ega edi. Quyida uning amaliy faoliyatlari keltirilgan.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Qishloq xo'jaligi rivoji: Tuproq unumdorligini oshirish va yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar berdi. Tuproq eroziyasiga qarshi choralar. U tuproqni eroziya va degradatsiyadan himoya qilish usullarini ishlab chiqdi. O'rmon va suv resurslarini muhofaza qilish. Tuproq bilan o'rmonlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgandi va o'rmonlarni himoya qilish muhimligini ta'kidladi.

**Tahlil va natijalar.** Vasiliy Vasilyevich Dokuchayev tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar geografiya, tuproqshunoslik va landshaftshunoslik fanlarining rivojida asosiy nazariyalar sifatida qabul qilingan. Ularning aksariyati bugungi ilm-fanda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Quyida Dokuchayev tamoyillari haqida batafsil ma'lumot berilgan. V.V. Dokuchayevning tamoyillari tuproqshunoslik va geografiya fanining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. U tuproqni tabiiy geosistema sifatida o'rganib, uning shakllanishida turli omillarning birgalikdagi ta'sirini aniqladi. Tuproq zonalligi tamoyili Tuproq turlari geografik zonalarga mos holda taqsimlanadi. Ushbu farqlanish iqlim, o'simlik qoplami va boshqa tabiiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu qonuniyat tabiat zonalari va tuproq unumdorligini o'rganishda muhimdir. Tabiat komponentlarining o'zaro bog'liqligi Tuproq hosil bo'lishiga iqlim, ona jins, relyef, biologik omillar va vaqtning birgalikdagi ta'siri aniqlangan. Bu yondashuv hududiy tabiatni o'rganishda kompleks tahlil asosini yaratdi. Tuproq hosil bo'lish omillari nazariyasi Dokuchayev tuproqni geologik jinlardan ajratib, uni iqlim va biotik omillarning uzoq muddatdagi ta'siri natijasi deb qaradi. Tabiiy zonallik qonuniyati Yerning geografik qutblardan ekvatorgacha o'tishi davomida tabiiy sharoitlarning o'zgarishi, shu jumladan tuproq, o'simlik va iqlimning turlicha bo'lishi tushuntirilgan. Vasiliy Vasilyevich Dokuchayev (1846–1903) tuproqshunoslik fanining asoschisi va kichik hududlar geografiyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan rus olimi sifatida tanilgan. Uning ishlarining muhim jihatlari quyidagilardan iborat. Dokuchayev tuproqni tabiatning mustaqil tabiiy-hududiy birligi sifatida o'rgangan birinchi olimlardan biri bo'lib, u tuproqni faqat fizik yoki kimyoviy tarkib asosida emas, balki ekologik, geografik va biologik omillar majmuasi sifatida ko'rib chiqdi. Bu yondashuv tuproqning hosil bo'lishida iqlim, rel'ef, onalik jinslar, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi omillarning rolini belgiladi. Dokuchayev kichik hududlarning geografik tuzilishini o'rganishda tuproqning muhimligini ta'kidladi. U tuproqni geografik element sifatida ko'rib, turli hududlardagi tuproq tiplari va ularning shakllanishi jarayonlarini xarakterladi. Bu yondashuv kichik hududlarning tabiiy geografik tahlilini chuqurlashtirdi. Dokuchayevning eng muhim ishlardan biri tabiiy-hududiy zonallik qonuni hisoblanadi. Bu qonunga ko'ra, iqlim va boshqa tabiiy omillar ta'sirida Yer yuzida tuproq va o'simliklarning turlari hududiy o'zgaradi. Ushbu nazariya kichik hududlar geografiyasini shakllantirishda asosiy nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Dokuchayevning amaliy ishlarida Rossiyaning turli hududlaridagi tuproqlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. U o'zining tadqiqotlarida ekologik va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olishni taklif qilgan, bu esa kichik hududlar resurslarini ratsional boshqarishga xizmat qilgan. Dokuchayevning ilmiy merosi nafaqat tuproqshunoslik, balki geografiya, ekologiya va agronomiya fanlari



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ishlari kichik hududlarni tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni birgalikda o'rganish metodologiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Dokuchayevning yondashuvlari zamonaviy ekologik va geografik tadqiqotlarda ham ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, kichik hududlarni barqaror rivojlantirish masalalarida qo'llanmoqda.

Uning tamoyillari ekologiya, qishloq xo'jaligi va hududiy rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. V.V. Dokuchayevning "Rus qora tuproq zonasi" tadqiqoti (1883) tuproqshunoslik fanidagi eng muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Ushbu ish tuproqni tizimli o'rganishga va uning unumdorligi sirlarini tushunishga asos yaratdi. Dokuchayev Rossiyaning qora tuproq zonalarini chuqur o'rgab, tuproq hosil bo'lishi va tabiiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. Tuproqni tabiiy geosistema sifatida o'rganish Dokuchayev qora tuproqni faqat yer qatlami deb emas, balki biologik, kimyoviy va fizik jarayonlar natijasi sifatida qaradi. Tuproq hosil bo'lish omillari: Issiq va namlikning muvozanati tuproq tarkibini shakllantiradi. Vegetatsiya. O'simliklarning chirindilari qora tuproqning boy gumus qatlamini hosil qiladi. Qora tuproq ko'pincha dasht hududlarida va boy minerallar asosida shakllanadi. Tuproq hosil bo'lishining ko'p asrlik jarayoni uning unumdorligini oshiradi. Qora tuproqning unumdorligi Dokuchayev qora tuproqni eng unumdor tuproq turlaridan biri sifatida baholadi va uning qishloq xo'jaligida beqiyos ahamiyatini ta'kidladi.

Dokuchayevning ilmiy yondashuvi. Landshaft tushunchasining rivoji. Dokuchayev landshaftlarni tuproq, o'simlik, iqlim, ona jins va inson faoliyati kabi tabiiy va ijtimoiy komponentlarning bir butun tizimi sifatida qaradi. Bu yondashuv kichik hududlar geografiasining nazariy asosini yaratdi. Tuproq va landshaft aloqasi. U tuproqni landshaftning asosiy elementi sifatida ko'rdi va uning hosil bo'lishini iqlim, relyef, o'simlik va boshqa tabiiy sharoitlarga bog'ladi. Bu kichik hududlarning tabiiy xususiyatlarini aniqlashga yordam berdi. Hududiy tahlil usuli. Dokuchayev geografik hududlarni o'rganishda kompleks yondashuvni joriy qildi. Bu yondashuv kichik hududlarning tabiiy resurslari va ekologik sharoitlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot Rossiya yerlaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish va eroziyadan himoya qilish chora-tadbirlari uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu ish Dokuchayevga xalqaro miqyosda e'tirof keltirib, tuproqshunoslik fanini rivojlantirishda asosiy poydevor bo'ldi.

**Xulosa.** Vasiliy Vasilyevich Dokuchayev kichik hududlar geografiasini va tabiiy landshaftlarni o'rganish tamoyillarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. U geografiya, ekologiya va tuproqshunoslik fanlari orasidagi bog'liqlikni ochib berdi, bu esa hududlarni tizimli o'rganish imkonini yaratdi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И.Хасанов, П.Н.Фулломов - Ўзбекистон табиий географияси 2-қисм 2010
2. Ш.Зокиров - Ландшафтшунослик 2013
3. А.Г.Исаченко - Ландшафтоведение и физикогеографическое районирование 1991
4. Ш.Зокиров - Кичик ҳудудлар табиий географияси 1999
5. Қ\_А.Солиев - Ўзбекистон Географияси
6. П.Баратов, М.Маматкулов - Ўрта Осиё табиий географияси 2002

